



**XI-XV ASRGA TEGISHLI "DEVONI LUG'OTIT TURK , "AT-TUHFATUZ ZAKIYYAT FILLUG'ATIT TURKIYA"
YODGORLIKALARIDAGI SO'ZLARNING QIYOSIY LEKSIK-SEMANTIK,
MORFOLOGIK, FONETIK TAHLILI**

Choriyeva Laziza , Toshtemirova Lola

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining
3-kurs talabalari*

Anotatsiya: Maqolada o'zbek lug'atchiligining eski turkiy til davriga(XI-XV) tegishli "Devoni lug'otit turk" , "At-tuhfatuz zakiyyat fillug'atit turkiya" asarlarida uchraydigan hayvon nomlari, dehqonchilikka oid so'zlarning yuqoridagi ikki asardagi o'xhash va farqli jihatlari qiyoslanib leksik-semantik, morfologik,fonetik tahlili yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: "Devoni lug'otit turk", "At -tuhfatuz zakkiyat fillug'atit turkiya", leksik-semantik tahlil, morfologik,fonetik tahlil...

Kirish. Tilshunosligimiz tarixida nafaqat tarixi, taraqqiyotida o'zining sezilarli darajadagi o'rniga ega manbalardan bir bu XI asrda yashab ijod qilgan Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari hisoblanadi. Koshg'ariyning bu asari lug'atchiligidan nodir namunasi hisoblanadi. Unda 6,5mingdan ortiq turkiy so'zlarning qaysi elatda qanday ma'no ifodalashi va u yana qanday nomlar bilan atalishi batafsil izohlangan. Lug'atchilimizda muhim ahamiyatga ega yana bir asar "At -tuhfatuz zakkiyat fillug'atit turkiya" bo'lib ,bu asar XV asrda Misrda mamluk-qipchoq tilida yozilgan, mualifi aniq emas.Unda o'zbek va forsiy tillarda unli tov ushlar leksika va morfologiya doirasida tahlil qilinadi.

Morfologik-fonetik farqli jihatlari. "Devonu lug'otit-turk"da o'sha davr dialektlari orasidagi morfologik o'ziga xosliklar ham yoritilg'an Jumladan, ko'pchilik turklarda buyruq birlik uchun bar, ikki kishi bo'lsa, bariñlar ikigü (ikkovingiz boring), ko'plik uchun bariñlar qamuğ shaklida qo'l lanilgan. Barij shakli hurmatni ifodalagan. O'g'uz va qipchoqlar birlikda bar, ko'plikda esa bariñ deydilar. Hurmat ma'nosida bariñiz deydilar (II.51). Turklar o't gan zamonda hurmat ma'nosida bardijiz deydilar. O'g'uzlar esa buni faqat ko'plikda (hammangiz bordingiz) qo'llaganlar (II.52).

"At-tuhfatuz zakkiyat fillug'otit turkiya" asarida buyruq fe'llarni 2 guruhga: oxiri illatli (oxiri unli) va oxiri sahif (oxiri undosh) bo'lgan buyruq fe'llarga bo'linadi. Oxiri undosh bo'lgan : kel, ket, tut, tur kabi. Oxiri unli bo'lgan: bashla, söylä, sözlä, bovuzla kabi. Buyruq tinglovchiga va g'oyibga bôladi. G'oyib buyrug'iga so'z oxiriga -sin, -sin qo'shimchalari qo'shiladi, tinglovchi birlik buyrug'ida kel, ket, tur, tut kabi shaklida bo'ladi. Ko'plik tinglovchiga kelingiz, ketingiz, sozlagizingiz shaklida bo'ladi. Bir guruhga buyruq qilishda keling, keting, turing va shular kabilar shaklida bo'ladi.



Buyruqning bo'lishlisi ham, bo'lishsizi ham qalin so'zlarda -g'in, -qin, ingichka so'zlarda -gin, -kin qo'shimchalari bilan ta'kidlanadi: turg'in, kelgin, turmag'in, ketmag'in.

Devon"dafe'llarning o'tgan zamon shaklini hosil qilishda dialektlar ikki guru hga ajraladi: yag'mo, tuxsi, chigil, arg'u, uyg'ur, to Chingacha bo'lган hamm a qabilalar -di, -di // -ti, -ti affiksini qo'shib yasaydilar: bardi "bordi", keldi "keldi" kabi. Bu shaklni o'g'uz va qip choqlarning ba'zilari – suvorinlar - duq, dük affiksi orqali yasaganlar. Bularda birlik va ko'plik shaklda farq qilmagan : men ya qurduq "men yoy qurdim", biz ya qurduq "biz yoy qurdik" (II.64), ol keldük "u keldi", biz keldük "biz keldik" (II.65). Bo'lishsiz shaklini ham solish tiring: barmadı (turklarda) barmaduq (o'g'uzlarda) "bormadi" (II.66). Fe'lning kelasi zamon shakli o'g'uzlarda qisqargan affiks orqali yasalgan: boshqa turklarda barirman – o'g'uzlarda bariran "boraman", boshqalarda ya qurar- men – o'g'uzlarda ya quraran "yoy quraman" (II.68).

II sh. birlikda shaxs-son -

η affiksi bilan yasalgan: tapindij. Ba'zi arg'ular tilida u -ğ (-g) ga aylantirilgan: tapindug "topinding", sen anii qaçurduğ "sen uni qochirding" (II.194).

"At-tuhfa" da o'tgan zamon fe'li affiksi -d hisoblanadi: keldim, keldik, kelding. D harfi mahraj yaqinligiga ko'ra t harfiga almashadi: tapti, qachdi, chiqtii. O'tgan zamon fe'llining yana 2 belgisi bor, birinchi -mish, mish, ikkinchisi -in, -in. Misol uchun, birlikda kelmish, ketmish, ko'plikda kelmishlar, ketmishlar. Asarda bu fe'llarga ko'z bilan ko'rganda emas, faqatgina eshitganlik ma'nosini anglatadi deya izoh beriladi. Kelasiz zamon fe'llari -g'ay, -qay, -gäy, -käy va -si, -sii affikslari bilan yasalgan. Chunonchi, kelgayman, kelgaybüz, kelgäysän, kelgäylär, chiqqayman kabi, bo'lishsiz shakli -ma affiksi orqali yasalgan. Masalan, kelmägäymän, chiqmag'aybüz.

-sii, -si affiksiga misol: kelasiman, kelasibiz, kelasiz, kelasisan.

"At-tuhfa"da shuningdek turkmanlarning kelasiz zamon uchun -jäk, -sär affikslari qo'llanishi haqida ma'lumot uchraydi. Keläjäkmän, keläjäkbiz, keläsärmän, keläsärbiz.

Leksik-semantik jihatdan tahlil qilsak: Hayvon nomlarini Devonu lug'otit turk va At tuhfadagi so'zlarni leksik-semantik jihatdan ham tahlil qilganda tafovutlar topildi. Masalan, At tuhfada erkak tuya ma'nosida bäsräk so'zi kelgan bo'lsa, Devonu lug'otit turkda esa bügra (168-bet) shaklida keladi. Echkining erkagi ya'ni takas At tuhfada täkä (31-bet), Devonu lug'otit turkda erkač (51-bet). Hayvonlarning xususiyatiga ko'ra ham tafovut aniqlandi. Qora ot At tuhfada qara (14-bet), Devonu lug'otit turkda oy at (o'y at) (34-bet). Urg'ochi tuya so'zining Devonu lug'otit turkda 2 xil varianti keltirilgan tetir (146-bet), injän (20-bet). Chiyabo'ri Devonu lug'otit turkda böri (400-bet), ajru (64-bet), At tuhfada qarsaq,



shaqal (26-bet). Otning yoli Devonu lug'otit turkda yalig (327-bet), At tuhfada a:1 (14-bet). Ikki yoshli qo'y Devonu lug'otit turkda tišak (156-bet), At tuhfada quyun (38-bet). Xuddi shunday, "Devon"da tarig(67-bet), "At-tuhfat"da tari(55-bet)ko'rinishida kelib va qisqa "i" bilan ifodalangan, 3manba 3 xil o'qiladi. Shuningdek, o'roq (dehqonchilikda ishlatiladigan asbob) so'zi "Devon"da baštar(arg'ucha 181-bet) hamda turpik(189-bet)shaklida uchraydi. Ekin so'zi "Devon"da ekin(44-bet), "At- tuhfat"da ham ekin(64-bet) shaklida keltirilgan, bu so'zlar leksik, semantik, fonetik jihatdan bir biridan farqlanmaydi, bir xil. Endi yanchdi(biror urug',donni yanchmoq,tuymoq) fe'liga to'xtaladigan bo'lsak: "Devon"da u uvruldi(93-bet) va unga sinonim ügüşdi(88-bet)kabi ko'rinishlarda keladi, "At-tuhfat"da esa janshidi(52-bet) unga sinonim tugti(29-bet) shaklida kelgan. Sepdi (biror urug'ni yerga sepmoq ma'nosida) fe'li "Devon"da ekitti(93-bet), va ekindi (variantlari: ekinür, ekinmäk 93-bet) shaklida, "At -tuhfat"da säpti(62-bet) ko'rinishida berilgan. Yuqorida keltirilgan yanchdi va sepdi fe'llarining har ikki kitobda keltirilgan shakli ham semantik jihatdan bir ma'noni anglatadi ular leksik jihatdan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek tilining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi uning ona tilida so'zlashuvchilarning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalqi kabi bir millatning paydo bo'lishi turkiy va eron tillarini birlashtiruvchi bir qator etnik guruhlarning birlashishi bilan bog'liq edi. Buni orasida katta farq bo'lgan o'zbek lahjasidagi dialektlarning ko'pligidan bilish mumkin. Biz ushbu maqolamizda, turkiy so'zlarimiz jamlangan "Devonu lug'atit-turk" va "At-tuhfa" kabi asarlaridagi so'zlarni qiyoslab, semantik, morfologik, fonetik tomonidan tahlil qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'oti-t-turk"(Turkiy so'zlar devoni)/Mahmud Koshg'ariy.-Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2017, -B.488
2. "At -tuhfatuz zakiyyat fillug'atit turkiya" O'zbekiston CCR "Fan" nashriyoti, Toshkent-1968.-B.279